



## AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 11 | pp. 13-19 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

### O'ZBEKISTONDA TASHQI AUDIT O'TKAZISH XUSUSIYATLARI



*Komilov Kamoliddin Ravshan o'g'li,*  
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti  
Magistratura bo'limi boshlig'i o'rinbosari  
Email: [kamoliddinkomilov@mail.ru](mailto:kamoliddinkomilov@mail.ru)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekistonda tashqi audit tizimining rivojlanishi, xalqaro audit standartlari (ISA) bilan integratsiyalashuvi va raqamli texnologiyalarning audit sifatiga ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqot EY, PwC, KPMG va Deloitte kabi yirik xalqaro auditorlik tashkilotlarining amaliyotlari asosida milliy audit amaliyotining holati, auditorlar malakasi, korporativ boshqaruv mexanizmlari va ichki nazorat tizimlarining yetuklik darajasini baholaydi. Natijalar tashqi auditni modernizatsiya qilish, shaffoflikni oshirish va raqamli audit tizimlarini keng qo'llash zarurligini ko'rsatadi.

**Kalit so'zar:** tashqi audit, ISA, raqamli audit, auditor malakasi, ichki nazorat tizimi, korporativ boshqaruv, moliyaviy hisobotlar shaffofligi.

**Аннотация:** В данной статье анализируются развитие системы внешнего аудита в Узбекистане, степень её интеграции с международными стандартами аудита (ISA), а также влияние цифровых технологий на качество аудита. Исследование основано на практике ведущих международных аудиторских компаний, таких как EY, PwC, KPMG и Deloitte, и оценивает состояние национальной аудиторской деятельности, уровень квалификации аудиторов, механизмы корпоративного управления и зрелость внутренних систем контроля. Полученные результаты подтверждают необходимость модернизации внешнего аудита, повышения прозрачности и более широкого внедрения цифровых аудиторских технологий.

**Ключевые слова:** внешний аудит, ISA, цифровой аудит, квалификация аудиторов, система внутреннего контроля, корпоративное управление, прозрачность финансовой отчётности.

**Abstract:** This article examines the development of the external audit system in Uzbekistan, its integration with International Standards on Auditing (ISA), and the influence of digital technologies on audit quality. The research is based on the practices of major international audit companies, including EY, PwC, KPMG and Deloitte, and evaluates the state of national audit practice, auditor qualification levels, corporate governance mechanisms, and the maturity of internal control systems. The findings highlight the necessity to modernize external auditing, enhance transparency, and widely apply digital audit technologies.

**Keywords:** external audit, ISA, digital auditing, auditor qualification, internal control system, corporate governance, financial reporting transparency.

## KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiy tizimida bozor munosabatlarning chuqurlashuvi, korxonalarining moliyaviy mustaqilligi oshishi va investitsion muhitning liberallashtirish tashqi audit instituti faoliyatining dolzarbligini yanada kuchaytirdi. Tashqi audit - korxonalarining moliyaviy hisobotlarini mustaqil ekspertiza asosida baholash, ichki nazorat tizimining samaradorligini tahlil qilish va xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy shaffofligini ta'minlashga qaratilgan professional faoliyat turi sifatida milliy iqtisodiyotda institutsional mexanizmning ajralmas bo'g'ini hisoblanadi. Global miqyosda tashqi audit xizmatining rivojlanishi xalqaro moliyaviy hisobot tizimlari, korporativ boshqaruv madaniyati va investitsion muhitning barqarorligini ta'minlashda muhim omil bo'lib kelmoqda. O'zbekiston iqtisodiyotida bu jarayonlarning jadallashuvi tashqi audit tizimining shakllanishini nafaqat zarurat, balki iqtisodiy barqarorlikning uzviy sharti sifatida talqin etishga imkon bermoqda.

O'zbekiston Respublikasida tashqi audit bozorining shakllanishi milliy buxgalteriya hisobi tizimi modernizatsiyasi, Xalqaro moliyaviy hisobot standartlarining (IFRS) bosqichma-bosqich joriy etilishi hamda auditorlik faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy baza takomillashuvi bilan chambarchas bog'liqdir. Ayniqsa, 2010-yillardan boshlab auditorlik faoliyatini davlat tomonidan sertifikatlashtirish, auditorlar malakasini baholash, audit tashkilotlarini akkreditatsiyadan o'tkazish va davlat organlari bilan ma'lumotlar almashuv mexanizmlarini yo'lga qo'yish tashqi audit xizmatlari bozorining institutsional barqarorligini ta'minladi. Auditorlik tashkilotlarining faoliyatining kengayishi, korporativ boshqaruvning kuchayishi hamda xalqaro investitsiya oqimlarini jalb qilish ehtiyoji tashkilotlar oldiga yuqori sifat va shaffof moliyaviy hisobot talablari qo'ydi. Shu boisdan tashqi auditning rolini kengroq anglash, uning milliy iqtisodiyotdagi ahamiyatini chuqur tahlil qilish va raqobatbardoshligini oshirish dolzarb masalalardan biriga aylandi.

Tashqi auditning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi bir qator omillarga bog'liq: auditorlarning professional malakasi, ichki nazorat tizimining yetukligi, moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarga muvofiqligi, shuningdek korporativ boshqaruv amaliyotlarining institutsional rivojlanish darajasi. Jahon amaliyotida tashqi audit xalqaro audit standartlari (ISA), korporativ boshqaruv kodekslari, riskga asoslangan audit metodologiyalari va raqamli texnologiyalar bilan integratsiyalashgan holda amalga oshiriladi. Mazkur yondashuvlar moliyaviy axborotning shaffofligi, aniqligi va ishonchliligini ta'minlash orqali korxonalar faoliyatining barqarorligini oshirish hamda sarmoyadorlar ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, O'zbekistonda auditorlik faoliyatini modernizatsiya qilish jarayoni xalqaro andozalar bilan uyg'unlashuvni talab etadi, ayniqsa Big Four - EY, PwC, KPMG va Deloitte kabi yirik auditorlik kompaniyalarining tajribalaridan foydalanish, audit metodologiyasini avtomatlashtirish va ichki nazorat tizimlarini institutsional mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, raqamli audit texnologiyalarining jadal joriy etilishi tashqi audit tizimi sifatini keskin oshirish imkonini bermoqda. Zamonaviy data analytics, ERP integratsiyasi, bulutli hisoblash texnologiyalari, masofaviy audit platformalari hamda sun'iy intellekt algoritmlari auditorlarga real vaqt rejimida moliyaviy ma'lumotlarni tahlil qilish, tekinga

emas balki riskga asoslangan tanlovlar asosida nazorat choralari qo'llash, xatoliklarni aniqlashda optimallashtirilgan usullarni qo'llash imkonini beradi. Bu texnologiyalar audit sifati va tezligini oshiradi, auditorlarning professional baholash darajasini kengaytiradi hamda korxonalarining moliyaviy hisobotlarini aniqlashda inson xatosini minimallashtiradi. Shu bilan birga, raqamli audit tizimlari auditorlik tashkilotlaridan yuqori texnik kompetensiyani, standartlashtirilgan ma'lumotlar bazasini va rivojlangan ichki axborot tizimini talab qiladi.

### ADABIYOTLAR SHARHI

Tashqi audit tizimi moliyaviy faoliyatni nazorat qilish, xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan tuzilgan hisobotlarning to'g'riligi va ishonchligini aniqlash, shuningdek, manfaatdor tomonlar uchun moliyaviy axborotning shaffofligini ta'minlashga xizmat qiluvchi eng muhim institut sifatida keng e'tirof etilgan. Jahon iqtisodiyoti rivoji shuni ko'rsatadiki, mustaqil tashqi audit tizimi bo'lmagan mamlakatlarda korxonalarining moliyaviy barqarorligi, sarmoyadorlar ishonchi va korporativ boshqaruvning samaradorligi sezilarli darajada pasayadi [1]. Shu bois, tashqi auditning nazariy asoslari moliyaviy nazorat, aksiyadorlik munosabatlari, xo'jalik hisoboti va korporativ boshqaruv tizimining shakllanishi bilan chambarchas bog'liqdir.

Tashqi audit faoliyatining tartiboti xalqaro miqyosda ishlab chiqilgan me'yoriy hujjatlar va audit qoidalariga asoslanadi. Xalqaro audit me'yorlari tashqi auditning mazmuni, baholash tartibi, audit dalillarini yig'ish, tekshirish yo'llari hamda xatoliklarni aniqlash usullarini belgilar ekan, auditorlik tahlilining asosiy talablarini mustahkamlab beradi [2]. Adabiyotlarda qayd etilishicha, tashqi audit sifati ikki eng muhim omilga bog'liq: auditorning kasbiy salohiyati va mustaqilligi [3]. Auditorning bilim darajasi qanchalik yuqori, tekshiruv usullari qanchalik mukammal va mustaqilligi qanchalik ta'minlangan bo'lsa, tashqi audit natijalari shunchalik aniq, asosli va ishonchli bo'ladi.

Yirik auditorlik tashkilotlari tomonidan to'plangan ilmiy-amaliy tajriba tashqi audit sifatini sezilarli darajada yuksaltirgan. Ular tomonidan ishlab chiqilgan ilg'or audit amaliyotlari, riskka asoslangan baholash, raqamli tahlil vositalari va ichki nazoratni baholash usullari moliyaviy hisobotlarni chuqur va mukammal tahlil qilish imkonini yaratadi [4]. Ilmiy manbalarga ko'ra, ma'lumotlarni avtomatik qayta ishlash, raqamli tekshiruv, masofadan turib audit o'tkazish, ichki axborot tizimlarini tahlil qilish usullari tashqi auditning tezligi va aniqligini ko'paytiradi, baholashda inson xatosi ehtimolini kamaytiradi hamda auditorning qaror qabul qilish salohiyatini oshiradi [5]. Bu jarayon moliyaviy nazoratning yangi bosqichiga yo'l ochadi, chunki auditorlar an'anaviy hujjat tekshiruvidan tashqari, to'plangan ma'lumotlarni chuqur raqamli tahlil qilish, muhim xavflarni aniqlash, ichki nazorat tizimini baholash va ma'lumotlar oqimlarini kuzatish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Adabiyotlarda ta'kidlanishicha, tashqi audit tizimi korporativ boshqaruvning sifatiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Mustaqil tashqi audit korxonalar faoliyatidagi manfaatlar to'qnashuvining oldini olish, aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish, boshqaruv organlarining mas'uliyatini kuchaytirish, xo'jalik qarorlarining ochiqligini ta'minlash va ichki nazorat mexanizmlarini mustahkamlashda muhim vosita sifatida xizmat qiladi [6]. Ayniqsa, ichki nazorat tizimi yetuk bo'lgan korxonalarda tashqi audit samaradorligi oshadi, tekshiruv xarajatlari kamayadi, dalillarni yig'ish osonlashadi va

auditor qarorining aniq asoslanish darajasi yuqori bo'ladi [7]. Ichki nazorat tizimining puxta tashkil etilishi korxonaning moliyaviy barqarorligini mustahkamlaydi, xatoliklarni erta aniqlashga yordam beradi hamda moliyaviy hisobot sifati yaxshilanadi.

### TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston tashqi audit tizimining shakllanishi milliy iqtisodiyotning tarkibiy o'zgarishlari, moliyaviy boshqaruv madaniyati hamda korporativ boshqaruv institutlarining rivoji bilan o'zaro bog'liq ravishda kechmoqda. Tashqi auditning joriy etilishi xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shaffofligini ta'minlabgina qolmay, balki moliyaviy ma'lumotlar oqimini tartibga solish, ichki nazorat tizimlarining kuchayishi, risklarni erta aniqlash va boshqaruv qarorlarining sifati oshirishga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, tashqi audit tizimining rivoji nafaqat kasbiy metodologiya va hisobot tartiblari bilan, balki auditorlarning malakasi, korxonalar tomonidan axborot taqdim etish madaniyati, ichki nazorat mexanizmlarining yetukligi, hamda korporativ mas'uliyatning shakllanish darajasi bilan belgilanadi. Shuning uchun, tashqi audit tizimi milliy iqtisodiyotda nafaqat nazorat mexanizmi, balki institutsional barqarorlikni ta'minlaydigan iqtisodiy infratuzilma sifatida namoyon bo'lmoqda.

**1-jadval. Tashqi audit tizimining institutsional ustunliklari**

Institutsional ustunliklar	Amaliy ifodalanish mexanizmlari	Strategik iqtisodiy natijalar
Mustaqil tashqi audit institutining shakllanganligi	Korxonalar hisobotlari manfaatdor tomonlar tomonidan ishonch bilan qabul qilinadi	Investitsion muhitda moliyaviy barqarorlik va shaffoflik ta'minlanadi
Ichki nazorat tizimlarining kengayishi	Xo'jalik faoliyatidagi kamchiliklar, risklar va moliyaviy buzilishlar erta bartaraf etiladi	Korporativ boshqaruvda mas'uliyat, javobgarlik va qarorlarning sifat darajasi oshadi
Xalqaro audit metodologiyasiga yaqinlashuv	Audit jarayonlari qat'iy qoidalar, protseduralar va kasbiy mezonlar asosida olib boriladi	Milliy audit bozori raqobatga chidamli, investorlarga qulay va barqaror tizimga aylanadi
Audit xulosalarining huquqiy maqomi kuchayishi	Audit dalillari boshqaruv, soliq organlari, manfaatdor tomonlar va nazorat organlari uchun ishonchli manbaga aylanadi	Moliyaviy boshqaruvning institutsional ochiqligi mustahkamlanadi

*Manba: muallif tomonidan tayyorlandi*

Jadvalda ko'rsatilgan natijalar shuni anglatadiki, tashqi audit tizimi O'zbekiston iqtisodiy boshqaruvining markaziy subinstituti sifatida shakllanmoqda. Mustaqil auditning mavjudligi manfaatdor tomonlar uchun axborot ishonchliligini kafolatlaydi, bu esa xo'jalik faoliyati natijalariga nisbatan tashqi risklarni kamaytiradi. Ichki nazorat tizimi bilan sinergiya - tashqi auditning eng muhim ta'sir mexanizmlaridan biridir, chunki

moliyaviy xatoliklar, noto'g'ri qarorlar yoki axborot buzilishlarini erta aniqlash, yuqori sifatli boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarur infratuzilmaga aylanadi.

Xalqaro audit metodologiyasi bilan yaqinlashuv kasbiy jarayonning tartiblashganligini, baholashning izchilligini va audit xulosalarining huquqiy e'tirofini oshiradi. Bu esa milliy iqtisodiyotda investorlar ishonchi, kapital harakati, kreditlash amaliyoti va korporativ boshqaruv madaniyatining mustahkamlanishiga bevosita xizmat qiladi.

**2-jadval. Tashqi audit tizimining institutsional zaif jihatlari va transformatsiya yo'nalishlari**

<b>Institutsional zaif tomonlar</b>	<b>Asosiy tizimli oqibatlar</b>	<b>Strategik transformatsiya yo'nalishlari</b>
Auditorlar bilim salohiyatining yetarli darajada chuqur emasligi	Audit jarayonlarida kasbiy aniqlik, metodikani qo'llash va xulosalar izchilligi yetarli darajada ta'minlanmaydi	Xalqaro o'quv tizimlari, kasbiy akkreditatsiya va uzluksiz malaka oshirish tizimlarini milliy amaliyotga integratsiya qilish
Ichki nazorat tizimlarining aksariyat korxonalarda yetuk emasligi	Axborot oqimlari tartibga tushmaganligi sababli audit dalillari yig'ish murakkablashadi, risklarni baholash chekiladi	Korxonalar uchun ichki nazorat standartlarini joriy qilish va ularni tashqi audit bilan uyg'unlashtirish
Tashqi audit natijalarining jamoatchilikka yetarlicha taqdim etilmasligi	Audit xulosasiga ijtimoiy e'tibor yetarli darajada shakllanmaydi, ishonch sustlashadi	Audit natijalarini ochiqlash, korporativ axborot siyosatini takomillashtirish, audit madaniyatini kengaytirish
Hisobot madaniyatining pastligi	Ko'plab xo'jalik yurituvchi subyektlar audit talablarini minimal darajada bajaradi, xulosalar hushtakchilik funksiyasiga aylanadi	Majburiy hisobot standartlarini kuchaytirish, korporativ boshqaruv kodekslarini amaliyotga singdirish

**Manba: muallif tomonidan tayyorlandi**

Ikkinchi jadval natijalari tashqi audit tizimining institutsional rivojida hali hal etilishi lozim bo'lgan muhim tizimli masalalarni aniqlaydi. Auditorlar kasbiy salohiyatining yetarli darajada rivojlanmaganligi tashqi auditning ilmiy-metodik darajasiga salbiy ta'sir qiladi. Shu sababli, xalqaro akkreditatsiya, global audit metodologiyasi, malaka oshirishning uzluksiz tizimi va kasbiy baholash mexanizmlarini milliy tizim bilan uyg'unlashtirish zarur.

Ichki nazorat tizimlarining zaifligi auditorlik dalillarining aniqlik darajasini pasaytiradi va audit jarayonlarining imkoni kengaymaydi. Tashqi auditning huquqiy kuchi oshgan sari ichki nazoratning institutsional standartlashuvi ham shart bo'ladi.

Audit natijalarining jamoatchilikka keng e'lon qilinmasligi — tashqi auditning eng sezilarli strategik muammolaridan biridir. Audit xulosasi korxonaning boshqaruv

madaniyati, shaffofligi va manfaatdor tomonlarga bo'lgan mas'uliyatini aks ettiradigan axborot standartidir. Shuning uchun audit xulosalari ommaviy axborot shakliga aylanishi, korporativ boshqaruv kodekslari bilan uyg'unlashishi va iqtisodiy axborot siyosatining tarkibiy qismi bo'lishi lozim.

### **XULOSA**

O'zbekiston tashqi audit tizimini institutsional jihatdan kuchaytirish uchun eng avvalo auditorlarning kasbiy salohiyatini uzluksiz oshirish, xalqaro malaka tizimlarini milliy amaliyotga integratsiya qilish, nazariy va amaliy darslar, treninglar hamda akkreditatsiya jarayonlarini yaxlit tizimga aylantirish zarur. Auditorlar uchun majburiy malaka monitoringi va reyting mezonlarini joriy etish, audit tashkilotlari o'rtasida professional raqobatni kuchaytirish, malaka oshirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yaratish tashqi audit xulosalarining sifat, izchillik va ishonchlilik darajasini oshiradi. Shu bilan birga, ichki nazorat tizimlarini korporativ boshqaruvning ajralmas elementi sifatida standartlashtirish, ichki axborot tizimlarini audit jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, korxonalar uchun metodik ko'rsatmalar, ichki audit reglamentlari va javobgarlik mexanizmlarini ishlab chiqish auditorlik tahlili uchun izchil axborot bazasini ta'minlaydi. Bu nafaqat audit vaqtini optimallashtiradi, balki auditorlarning xulosalarini ishonchli dalillar bilan ta'minlash imkoniyatini kengaytiradi.

Tashqi audit natijalarining jamoatchilikka ochiq taqdim etilishi, korporativ axborot siyosati bilan uyg'unlashishi va manfaatdor tomonlar uchun auditorlik xulosalaridan foydalanish madaniyatini kengaytirish zarur. Audit xulosalari ko'plab korxonalarda faqat nazorat organlari uchun hujjat sifatida ko'rilmogda, holbuki ular korporativ boshqaruvning strategik axborot standartiga aylanishi lozim. Bu borada audit natijalarini solishtiriladigan shaklda ommalash, korporativ boshqaruv kodekslarida axborot shaffofligini kuchaytirish, audit xulosalaridan strategik boshqaruv, kreditlash, riskni baholash va investitsiya qarorlarida foydalanishni kengaytirish iqtisodiy boshqaruv tizimining ishonchliligini oshiradi. Shu bilan birga, majburiy hisobot standartlarining amaliy qo'llanishini kuchaytirish, auditdan o'tgan moliyaviy hisobotlarning sifat mezonlarini aniqlash, davlat ulushi yuqori bo'lgan korxonalar uchun ham audit madaniyatini majburiy me'yorlarga aylantirish zarur, chunki bu iqtisodiyotning barcha segmentlarida yagona moliyaviy intizomni shakllantiradi.

Yakuniy xulosa sifatida ta'kidlash joizki, O'zbekiston tashqi audit tizimi hali to'liq institutsional yetuklik bosqichiga o'tmagan bo'lsa-da, uning transformatsiya salohiyati juda yuqori. Mustaqil tashqi audit korporativ boshqaruvning mas'uliyat darajasini oshirib, ichki nazoratning samaradorligini mustahkamlaydi, moliyaviy axborot shaffofligini ta'minlaydi va manfaatdor tomonlar uchun ishonchli axborot muhitini yaratadi. Auditorlarning kasbiy salohiyati, ichki nazorat tizimlarining standartlashuvi, audit xulosalarining ommaviy e'tirofi va hisobot madaniyatining shakllanishi milliy iqtisodiyotda strategik barqarorlikning eng muhim kafolatiga aylanadi. Tashqi auditning institutsional kuchayishi investorlar ishonchini oshiradi, korxonalarda moliyaviy intizomni mustahkamlaydi, xo'jalik risklarini kamaytiradi va milliy bozorning raqobatbardoshligini oshiradi. Natijada, tashqi audit iqtisodiy boshqaruvning nafaqat nazorat mexanizmi, balki strategik barqarorlikni ta'minlovchi iqtisodiy infratuzilma sifatida shakllanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

- [1] DeAngelo, L. Auditor Size and Audit Quality // *Journal of Accounting and Economics*. – 1981. – Vol. 3, No. 3. – P. 183–199.
- [2] International Auditing and Assurance Standards Board (IAASB). International Standards on Auditing: Handbook of International Quality Control, Auditing, Review and Other Assurance Engagements. – New York: IFAC, 2020. – 1512 p.
- [3] Francis, J. R. A Framework for Understanding Audit Quality // *Auditing: A Journal of Practice & Theory*. – 2011. – Vol. 30, No. 2. – P. 125–152.
- [4] Knechel, W. R.; Salterio, S. *Auditing: Assurance and Risk*. – New York: McGraw-Hill Education, 2016. – 832 p.
- [5] Appelbaum, D.; Kogan, A.; Vasarhelyi, M. Big Data and Advanced Analytics in External Auditing // *Accounting Horizons*. – 2017. – Vol. 31, No. 3. – P. 63–80.
- [6] Cohen, A.; Sayag, G. The Effectiveness of Internal Auditing in Contributing to Organizational Performance // *Managerial Auditing Journal*. – 2010. – Vol. 25, No. 3. – P. 240–255.
- [7] Boynton, W. C.; Johnson, R. N.; Kell, W. G. *Modern Auditing: Assurance Services and the Integrity of Financial Reporting*. – Hoboken, NJ: John Wiley & Sons, 2006. – 1152 p.

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

